

2021– yilning yanvar – mart oylarida Qashqadaryo viloyatining qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020– yilning yanvar – mart oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 2 376,7 mlrd. soʻmni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar– 2 287,2 mlrd. soʻmni (102,7 %), oʻrmon xoʻjaligi–82,7 mlrd. soʻmni (101,5 %), baliqchilik xoʻjaligi– 6,6 mlrd. soʻmni (101,1 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarkibida Qashqadaryo viloyatining ulushi 8,0 % ni tashkil etdi.



2 376,7

**Qashqadaryo viloyati bo'yicha
qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. soʻm**

01



**2 287,2 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda koʻrsatilgan
xizmatlar**

02




82,7 Oʻrmon xoʻjaligi

03




6,6 Baliqchilik xoʻjaligi

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati (foizda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliqchilik xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2021– yilning yanvar – mart yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 96,2 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 3,5 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 0,3 % i – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi,(mlrd.so‘m)



2021– yilning yanvar – mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Chiroqchi (308 mlrd. so‘m) va Kitob (228 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shahrisabz shahri (11 mlrd. so‘m), Qarshi shahri (42 mlrd. so‘m) va Mirishkor tumanini (120 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (102,7 %) yuqori o‘sish sur‘atlari Dehqonobod (106,1 %), Yakkabog‘ (105,1 %), Nishon (104,7 %), Kasbi (104,5), Muborak (104,4 %), Mirishkor (103,8 %) va Kitob (103,6%) tumanlarida kuzatildi. Qarshi shahri (94,2 %), Qarshi (97,3 %), G‘uzor (101,6 %), Koson (101,8 %), Qamashi (102,0 %), Chiroqchi (102,6 %), va Dehqonobod (102,6 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati (foizda)




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2021– yilning yanvar – mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2 276,7 mlrd. so'mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari– 151,7 mlrd. so'mni (103,8 %), chorvachilik mahsulotlari– 2 125,0 mlrd. so'mni (102,6 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

6,7 %
Dehqonchilik
mahsulotlari



93,3 %
Chorvachilik
mahsulotlari

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (foizda)




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi (foizda)



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 89,5 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 7,7 % i – fermer xo'jaliklariga, 2,8 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)



2021-yilning yanvar – mart oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Yakkabog' tumanida (17,9%), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Koson tumanida (97,5%), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Mirishkor tumanida (8,1%) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Koson tumanida (1,7%), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Yakkabog' tumanida (78,0%), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Nishon tumanida (0,5%) qayd etildi.

Dehqonchilik


2021– yilning yanvar – mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 151,7 mlrd. soʻmni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 6,7 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 3 202 t. sabzavotlar (2020– yilning yanvar – martiga nisbatan 0,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



**Qashqadaryo viloyati bo'yicha
sabzavotlar
yetishtirish hajmi, t.**




Chorvachilik



2021– yilning yanvar– mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2 125,0 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 102,6 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 93,3 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2020– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 42,6 ming t. go‘sh (2020– yilning yanvar – martga nisbatan 3,2 % ga ko‘p), 140,1 ming t. sut (1,8 % ga ko‘p), 90,8 mln. dona tuxum (0,2 % ga ko‘p), 60,3 ming dona qora ko‘l teri (1,0 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi va 356,9 t. baliq (0,1 % ga ko‘p) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021–yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 42,6 ming t. go'sht (2020–yilning yanvar – martiga nisbatan 3,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Qashqadaryo viloyati bo'yicha go'sht (*tirik vaznda*) yetishtirish hajmi, tonna




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 140,1 ming t. sut (2020– yilning yanvar – martiga nisbatan 1,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Qashqadaryo viloyati bo'yicha
sut yetishtirish
hajmi, t.**




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 90,8 mln. dona tuxum (2020– yilning yanvar– martiga nisbatan 0,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 62,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




**Qashqadaryo viloyati bo'yicha
olingan tuxum
hajmi, ming dona**




Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 356,9 tonna (2020– yilning yanvar – martiga nisbatan 0,1 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 89,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2021– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,5 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 7,0 % i fermer xo'jaliklariga, 87,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 10,0 % i fermer xo'jaliklariga, 86,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 3,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 5,3 % i fermer xo'jaliklariga, 71,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 22,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 596,4 mingtaga yetdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 15,3 ming boshga (1,0 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 94,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Qashqadaryo viloyati
bo'yicha yirik shoxli
qoramollarning umumiy
bosh soni, ming bosh**




2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 522,4 mingtaga yetdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 5,1 ming boshga (1,0 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati




**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 93,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh




2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 4 690,7 mingtaga yetdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilarning bosh soni – 109,6 mingtaga (2,4 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar


Soni, ming bosh



O‘sinh sur‘ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 87,4 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



**Qashqadaryo viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**




2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 32,3 mingtaga yetdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlarning bosh soni – 108 boshga (0,3 %) ko‘paydi.

Otlar


Soni, bosh



O‘sish sur‘ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 86,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta‘kidlash lozim.



**Qashqadaryo viloyati
bo'yicha otlarning
umumiy bosh soni, bosh**




2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 5963,2 mingtaga yetdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 12,9 ming boshga (0,3 %) ko‘paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O‘sinh sur‘ati




**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 71,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.



**Qashqadaryo viloyati bo'yicha
parrandalarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 75-221-34-46
• 75-220-04-15